

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
ROMAN- GERMAN TILLARI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

fakultet

dekani _____ p.f.n. D. Jo‘rayev

“ _____ ” _____ 2014 yil

5120100 – “Filologiya (fransuz tili va adabiyoti)” ta’lim yo‘nalishi
IV kurs 41 - guruh talabasi **MIRZAYEVA RUSHANA OCHILOVNA**ning
bakalavr darajasini olish uchun yozgan

**«« EN » va «Y » O‘RIN RAVISHLARINI
FRANSUZ TILI GAP VA IBORALARIDA ISHLATILISHINING O‘ZIGA
XOS JIHATLARI » mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

QARSHI – 2014 yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabr PQ-1875 sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “.... O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatining yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi.

...Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida...” belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida chet tillarni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, usullarini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalasi.

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV
Toshkent sh., 2012 yil 10 dekabr, PQ-1875-son***

MUNDARIJA

K I R I S H.....	3
I – BOB. «EN» O’RIN RAVISHI (<i>Adverbe de lieu</i>)	
1.1. « <i>en</i> » – ning gap va iboralarda olmosh va ravish vazifasida kelishi	7
1.2. « <i>en</i> » – ning gaplarda predlog vazifasida kelishi.....	15
II – BOB. «Y» O’RIN RAVISHI (<i>Adverbe de lieu</i>)	
2.1. « <i>y</i> » – ning olmosh vazifasida kelishi.....	17
2.2. « <i>y</i> » – ning o’rin ravishi vazifasida kelishi.....	20
III – BOB. «EN» va «Y» O’RIN RAVISHLARINING SODDA VA QO‘SHMA GAPLARDA QO‘LLANILISHINI O‘ZIGA XOS JIHATLARI.	
3.1. Sodda va qo‘shma gaplarda « <i>en</i> » o’rin ravishining o‘rni.....	21
3.2 Sodda va qo‘shma gaplarda « <i>y</i> » o’rin ravishining o‘rni.....	40
XULOSA	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI	54

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning « Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch » asarida aytib o'tganlaridek « Vatanimizning kelajagi, Xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib xayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni xech qachon unutmasligimiz kerak!

Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. »

Shu bois 2012- yil 10- dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan keyingi yillar davomida dunyo mamlakatlari bilan xalqaro aloqalar kengayib bormoqda. Shu jumladan fransuz tilida so'zlashadigan mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari keng yo'lga qoyilmoqda. Fransuz tilining BMT tillaridan biri ekanligini hisobga olsak, albatta, uni o'rganishga qiziqishlar ortib boraveradi.

Mavzuning dolzarbligi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi «**en**» va «**y**» o'rin ravishlarining fransuz tili gap va iboralarida qo'llanilishini o'ziga xos jihatlari» deb nomlanib, fransuz tilida «**en**», «**y**» larning olmosh, ravish, shuningdek «**en**» predlog vazifasida qo'llanilishini o'ziga xos jihatlari organish va tahlil qilish ushbu tadqiqotimizning dolzarbligini ta'minlaydi.

Ishning maqsadi va vazifasi . Mazkur malakaviy ishimizning maqsadi « **en** » va « **y** » larni fransuz tili gap va iboralarida olmosh yoki ravish sifatida qo‘llanilishining o‘ziga xos qoidalarini o‘rganish va farq qila olishdan iboratdir.

Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish kerak bo‘ladi:

1. « **en** » ni gap va iboralarda olmosh va ravish, predlog vazifasida kelishi.
2. « **y** » ni olmosh va ravish vazifasida kelishi.
3. « **en** », « **y** » o‘rin ravishlarini sodda va qo‘shma gaplarda qo‘llanilishining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish. To‘plangan materiallarni tahlil qilish.

Ilmiy yangiligi va ahamiyati. Malakaviy ishning **ilmiy yangiligi va ahamiyati** shundan iboratki, til materiallari orqali aniqlandi va olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topib, fransuz tili gap va iboralarida « **en** », « **y** » larni olmosh va ravish vazifasida qo‘llanilishini yoritib beradi. Bu tadqiqot natijalaridan fransuz tili grammatikasi boyicha amaliy mashg‘ulotlarida va o‘zbek tili hamda fransuz tilini qiyosiy o‘rganadigan maxsus kurslarda foydalanilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining obekti va predmeti. Dunyo ilmining barcha sohalarida bo‘lgani kabi filologiya, xususan tilshunoslik sohasida ham biror bir tadqiqot yoki yangilik yaratilar ekan, albatta u ishning o‘z obekti va predmeti mavjud bo‘ladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining mavzusi « « **en** », « **y** » o‘rin ravishlarining fransuz tili gap va iboralarida qo‘llanilishini o‘ziga xos jihatlarini » bo‘lganligi ham bu ishning obekti, albatta fransuz tili grammatikasida « **en** », « **y** » o‘rin ravishlarini bajaradigan funksiyasiga ko‘ra qo‘llanadigan qoidalar va ularni farqlashda mavjud muammolarni tahliliy o‘rganish ushbu tadqiqotimizning predmeti hisoblanadi .

Ishning o‘rganilganlik darajasi . Fransuz tili grammatikasida « **en** », « **y** » o‘rin ravishlarini bajargan funksiyasiga ravish, olmosh va predlog bo‘lib kelishini o‘rganish ahamiyatli hisoblanadi. Ular boyicha ko‘pgina tilshunoslar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin, « **en** », « **y** » o‘rin ravishlarining gap va

iboralarda qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari chop etilgan adabiyotlarda to'liq berilmagan.

Mazkur malakaviy ishda mazkur muammoni ma'lum darajada hal qilishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi .

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar royxatidan iborat.

Kirish qismida tadqiqot aspektlari, uning aktualligi, maqsad va vazifalari, ilmiyligi va amaliy ahamiyati berilgan.

Birinchi bobda « **en** » o'rin ravishi (*Adverbe de lieu*)ning olmosh, ravish va predlog vazifasida kelishi ko'rib chiqilgan. Ikkinchi bobda esa « **y** » o'rin ravishi (*Adverbe de lieu*)ning olmosh va ravish vazifasida tutgan o'rni ko'rilib, misollar bilan yo'ritilgan. Uchinchi bobda, « **en** », « **y** » ravishli olmoshlarining sodda va qo'shma gaplarda qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari ko'plab misollar asosida tadqiq qilingan.

Xulosa qismida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil etilgan.

I – BOB. « EN » O'RIN RAVISHI (*Adverbe de lieu*)

Grammatida ko'pincha **en, y** larni «ravishli olmoshlar» deb ataymiz. Chunki, **en, y** kelib chiqishi bo'yicha o'rin ravishlari hisoblanadi (**en** lotin tilidan inde – u yerdan, « **y** » esa ibi – u yoqqa, u yerga deb tarjima qilinadi). **en, y** fransuz tilida ravish, kishilik olmoshi yoki neytral ko'rsatish olmoshi vazifasida ham keladi. Shu jumladan, « **en** » predlog vazifasida ham qo'llanadi.

Grammatik qoidaga ko'ra, ravish so'z turkumi sifatida o'zining semantik, grammatik tuzilishi, sinktaktik xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Ravishning semantik mohiyati jarayon, harakat va holatni, hamda kesimlilik va nokesimlilikni jihatlarini o'z ichiga oladi. Xususan, ravishning fe'l yoki sifat oldida holni ifodalashdagi sintaktik xususiyati ko'proq xarakterlidir.

Modomiki fe'lning shakli gap tuzilishi o'rtasida ekan, ravish osongina gapni to'liq xarakterlovchi bo'ladi. Grammatik xususiyatlariga ko'ra, ravish boshqa so'z turkumlaridan o'zgarmasligi bilan farqlanadi.¹

1.1. **en – ning gap va iboralarda olmosh va ravish vazifasida kelishi.**

En, y lar sintaktik xususiyatiga ko'ra ravish, olmosh, predlog vazifalarida keladi. Shu jumladan, ular morfologik va sintaktik jihatlarini namoyon qiladi. Shuning uchun ularni atroflicha o'rganish talab etiladi.

1⁰. **En olmoshi** – **de** predlogi bilan kelgan ot o'rnida to'ldiruvchi vazifasida keladi. U faqat predmet nomlarida ishlatiladi:

Avez-vous besoin *de ce livre*? Non, je n'**en** ai pas besoin [**en**– *de ce livre*]

Bu kitobga muhtojmisiz? Yo 'q, **unga** muhtoj emasman. [**unga**– kitobga]

Vous occupez-vous *de littérature* ? Je m'**en** occupe [**en** – *de littérature*]

Siz adabiyot bilan shug'ullanasizmi? Men u bilan shug'ullanaman [*u bilan – adabiyot bilan*].

Etes-vous contents *de vos études* ? Nous **en** sommes contents [**en**– *de nos études*].

¹ Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2000. стр. 200–201.

Siz o‘qishlaringizdan xursandmisiz? Biz undan xursadmiz [undan – o‘qishlarimizdan]

Il aperçut une maison et s’**en** approcha [**en**– de la maison].

U bir uyni ko‘rib qoldi va unga yaqinlashdi [unga – uyga]

.... avisant une mandoline accroché contre la muraille.... je demandai à la petite fille qui nous servait si elle savait **en** jouer. – Non , répondit-elle ; mais don José **en** joue si bien ! (P.Mérimée).

... Devor to‘rida mahkamlangan mandolinani ko‘rib qolib, bizga xizmat qilayotgan qizaloqdan, **uni** chala bilishini so‘radim. – Yo‘q deb javob berdi; ammo, Don Xose **uni** juda yaxshi chaladi. (P.Mérimée).

.... Danielle Casanova n’eût jamais, comme tant d’intellectuels ou de petits bourgeois l’impression « d’aller au peuple ». Elle n’eût jamais besoin dy aller, parce qu’elle **en** sortait, parce qu’elle **en** était. (S.Téry)

.... Daniel Kazanova bu qadar zukko yoki yosh meshchandek « Xalq oldiga borish» taassurotiga ega emasdi. U, u yerdan va ulardan bo‘lganligi sababli, hech qachon u yerga borishga muhtoj bo‘lmagan.

2⁰. **En** olmoshi **du, de la, des** tutash artikllari bilan kelgan ot o‘rnida vositali to‘ldiruvchi vazifasida ishlatiladi (agar ot oldidagi aniq artikllar o‘rnida *le, la, les* kishilik olmoshlari kelgan bo‘lsa):

Parlez-vous de votre ami? *Do‘stingiz haqida gapiryapsizmi?*

Oui, je parle de lui (j’**en** parle). *Ha, men u haqida gapiryapman.*

Avez-vous du papier ? Oui, j’**en** ai, je puis vous **en** donner [**en**– du papier].

Sizda qog‘ozdan bormi? Ha, menda bor, sizga undan bera olaman [undan – qog‘ozdan].

Prenez-vous du café le matin ? Non, je n’**en** prends jamais [**en**– de café].

Siz ertalab qahva ichasizmi? Yo‘q, men undan hech qachon ichmayman [undan–kofedan].

Y a-t-il de l’encre dans votre encrier ? Il y **en** a un peu [**en**– d’encre].

Sizning siyohdoningizda **siyoh** bormi? **Undan** ozgina bor [**undan**–siyohdan].

Voici du pain, prenez-**en** [**en**– du pain].

Mana **non**, undan oling [**undan**– nondan].

Prenez du fromage, il **en** reste encore un morceau [**en**– du fromage].

Pishloqdan oling, **undan** hali bir bo‘lak bor [**undan**–pishloqdan].

Connaissez-vous *des étudiants* de la 3⁰ année ? J’**en** connais. [quelques-uns].

Siz 3^{chi} bosqich talabalaridan taniysizmi? Men, ulardan taniyman. [bir nechitasi].

mais : Connaissez-vous les étudiants de la 3⁰ année ? Je **les** connais. [tous].

ammo: Siz 3^{chi} bosqich talabalarini taniysizmi? Men, ularni taniyman. [hammasini].

Avez-vous vu *des films français* ? J’**en** ai vu [quelques-uns].

Siz fransuz **filmlaridan** tomosha qilganmisiz? Ha, ulardan tomosha qilganman [bir nechitasi].

mais : Avez-vous vu *les films français* ? Je **les** ai vu [tous].

ammo: Siz fransuz filmlarini ko‘rganmisiz? Men ularni ko‘rganman [hammasini].

Voici *des pommes*, mangez-**en** [quelques-uns].

Mana olmalardan yeying [bir nechtasini]

mais : Voici *les pommes*, mangez-**en** [toutes les pommes].

ammo: Mana olmalar, ularni yeying [hammasini]

Elle avait de la peine. Sylvie **en** avait aussi (Rolland).

U g‘am chekardi. Silviya **ham** mayus edi.

Ses ennemis ? Il n’**en** avait point (Rolland).

Uning dushmanlari? Ulardan bironta ham yo‘q edi.

Quoi ! monsieur, vous êtes le fils de cet excellent docteur Nozière ? Vous aimiez beaucoup *les gâteaux*. Les aimez-vous encore ? Venez donc **en** manger chez nous (A.France).

Nima! janob, siz– marhamatli shifokor Nozierning o‘g‘limisiz? Siz pirogni juda yoqtirardingiz. Ularni haliyam yoqtirasizmi? Bizni uyga undan iste‘mol qilishga keling (A.France).

3⁰. **En** quyidagi hollarda vositali to‘ldiruvchi, aniqlovchi ot yoki shaxssiz fe‘lning aniq egasi o‘rnida keladi:

a) Ноаниқ артиклар *un, une* oldidan:

*Avez-vous un crayon ? Oui, j’**en** ai un [**en** –crayon].*

*Sizda qalam bormi? Ha, menda **undan** bir dona bor*

*Cette gibecière ne ressemblait pas à une gibecière par la raison que ce n’**en** était pas une [**en** – gibecière].*

*Bu ov xaltasi haqiqatdan ov xaltasidan biri emasligiga o‘xshamaydi [**undan** – ов халтаси].*

*S’il y a des sorcières, cette fille-là **en** était une ! (P.Mérimée).*

*Agar jodugarlar bo‘lsa, u yerda turgan qiz **undan** biri edi.*

b) Sanoq sonlar oldidan (*un, une, deux ...*):

*Avez-vous des soeur ? Oui, j’**en** ai deux.*

Opalaringiz bormi? Ha, meni ikkita opam bor

*J’ai acheté cinq pommes et j’**en** ai mangé trois.*

Men besh dona olma sotib oldim va undan uchtasini yedim.

c) Miqdor ravishi oldidan (*peu, beaucoup*) :

*J’aime les fruits, mais j’**en** mange peu [**en** – de fruits].*

*Men mevalarni yaxshi ko‘raman, lekin **undan** ko‘p yemayman.*

*Y a-t-il beaucoup d’étudiants à la faculté? Il y **en** a beaucoup.*

Fakultetda talabalar ko‘pmi? Ko‘p.

d) Miqdorni ifodalovchi so‘zlar oldidan (nechta, qancha):

*Combien de cahiers avez-vous ? J’**en** ai plusieurs.*

Sizda nechta daftar bor? Menda daftar ko‘p.

Nous avons invités des enfants, il en est venu une foule.

Biz bolalarni taklif qildik, bir to‘da bo‘ldi

Après avoir compté les cigares du paquet que j'avais mis entre ses mains, il **en** choisit un certain nombre, et me rendit le reste ... (*P. Mérimée*).

Men uni qo'liga qo'ygan qutidagi sigaretlarni sanab bo'lib, u undan bir nechtasini oldi va qolganini menga qaytardi.

e) Sifatlar oldidan (*un autre, d'autres*):

C'est la seule place que je puisse vous offrir, je n'**en** ai pas d'autres.

Bu men sizga taklif qilgan yagona joy, menda boshqa yo'q.

de predlog bilan kelgan gap (1⁰) va qism bildiruvchi artikl (2⁰) dan farq shundaki, bu so'zlar o'rnida « *en* » kelmaydi, unga tayanadi,

4⁰. **En** olmoshi **de** predlogi bilan kelgan ot o'rnida to'ldiruvchi vazifasida kelib, bunda egalik xususiyatiga ega bo'ladi:

J'aime cette ville, j'**en** connais toutes les rues [**en** – de cette ville, complément de *rues*].

Men bu shaharni yoqtiraman, uning barcha ko'chalarini bilaman [**uning** – bu shaharning, **to'ldiruvchi** – ko'chalar]

Cette règle est facile à comprendre, mais l'application **en** est difficile [**en** – de cette règle, complément de *l'application*].

Bu qoidani tushunish oson, lekin uni izohlash qiyin. [**uni** – bu qoidani, **to'ldiruvchi** – izohlash]

Bunday holda, **en** faqat predmet nomlarini ifodalaydi. Kishi nomlari uchun egalik sifatlari qo'llaniladi:

J'aime cet enfant, mais je connais **ses** défauts.

*Men bu bolani yoqtiraman, lekin **uning** kamchiligini bilaman.*

Predmet nomlarini ifodalashda **en** qo'llaniladi, **son**, **sa**, **ses** egalik sifatlari esa ishlatilmaydi:

(1) Faqat ot ikkita har xil gapda predmetga taalluqliligini ko'rsatsa, agar ular bitta gapda bo'lsa ham egalik sifatlari qo'llaniladi:

J'aime cette ville, **ses** rues, **ses** places.

Men bu shaharning ko'chalarini, maydonlarini yoqtiraman,

(2) **en** faqat shunday ifodalanadi

a) vositali to'ldiruvchi:

Cette chanson me plaît, j'**en** aime la musique [*la musique* (objet direct), de cette chanson (**en**)].

Bu qo'shiq menga yoqadi, men uni musiqasini yoqtiraman [musiqa (vositali to'ldiruvchi, bu qo'shiqning (uning))]

Ce poème, Mistral y travaille depuis sept ans, et voilà près de six mois qu'il en ai écrit le dernier vers. (*Daudet*)

Bu poema, Mistral yetti yildan beri u yerda ishlaydi va mana uning oxirgi sahifalarini yozganligiga olti oyga yaqin vaqt bo'ldi.

b) Aniqlovchi vazifasida:

Cette chanson me plaît, qui **en** est l'auteure ? [*l'auteure* (attribut) de cette chansons (**en**)]

Bu qo'shiq menga yoqadi, uni muallifi kim? [*muaallif (aniqlovchi) bu qo'shiqni (uni)*]

c) *être* (bo'lmoq) fe'li (kamdan–kam boshqa fe'l holatida) yoki passiv shakldagi fe'l egasini to'ldiruvchi vazifasida:

Cette chanson me plaît, la musique **en** est charmante ? [*la musique* (sujet) de cette chansons (**en**)].

Bu qo'shiq menga yoqadi, uning musiqasi ajoyib [musiqa (ega) bu qo'shiqning (uning)]

Il traversa un vrai square, aves des arbres. Tous les banc **en** étaient occupés par des hommes (*Triolet*).

U haqiqiy daraxtzor xiyobonni kesib o'tdi. Uni har bir o'rindiqlari odamlar bilan band.

5⁰. **En** butun gap yoki **de** (**en**– unga, undan) predlogi bilan kelgan noaniq to'ldiruvchini ifodalab, mustaqil olmosh vazifasida keladi :

J'ai bien écrit ma dictée et j'**en** suis très contente [**en** –de ce que j'ai bien écrit, d'avoir bien écrit, de cela]

Men diktantimni yaxshi yozdim va bundan juda xursandman [**bundan** – yaxshi yozganligimdan, yaxshi yozishga erishganimdan, bundan]

Il a subi ses examens, il **en** est tout fier [**en** –de ce qu’il a subi, d’avoir subi, de cela].

U imtihonlarga uchradi, u juda kuchli edi [**bundan** –nimaga uchragan bo‘lsa, uchrab, bundan].

Je voulais l’aider, mais il dit qu’il n’en avait pas besoin [**en** –de ce que je l’aide, d’être aidé, de cela].

Men unga yordam berishni xohladim, lekin u bunga muhtoj emasligini aytdi [**bunga**– meni unga yordam berishimga, yordam bergan bolishimga, bunga].

En – **de** predlogi bilan kelgan infinitiv o‘rniga almashtirilishi mumkin, faqatgina bu infinitiv **de** predlogi bilan kelgan to‘ldiruvchi otga mos kelishi lozim :

Je suis content de ma composition	}	J’ en suis content
Je suis contente d ’avoir écrit ma composition		

<i>Men inshoimdan mamnunman.</i>	}	<i>Bundan xursandman</i>
<i>Men inshoni yozganimdan xursandman.</i>		

Je vous remercie de votre bonté	}	Je vous en remercie
Je vous remercie d ’être si aimable		

<i>Men yaxshiligingiz uchun rahmat aytaman</i>	}	<i>Sizga bundan rahmat</i>
<i>Men juda iltifotingizga rahmat aytaman</i>		

Агарда, инфинитив тўлдирувчи предлогсиз воситали тўлдирувчи отга мос келса, уни ўрнига алмаштириш учун *le* нейтрал олмоши ишлатилади:

On me propose <i>un travail</i> à l’institut	}	On me le propose.
On me propose <i>de travailler</i> à l’institut		

Menga institutda ish taklif qilishdi
Meni institutda ishlashni taklif qilishdi } *Menga uni taklif qilishdi.*

Il m'a promis un cadeau
Il m'a promis d'apporter un cadeau } *On me l'a promis.*

U menga sovg'a va'da berdi.
U menga sovg'a olib kelishni va'da berdi } *U menga **uni** va'da qildi.*

*Ko'pincha neytral **en** sababni belgilaydi (undan – shu sababli)*

*Elle portait une robe longue et **en** paraissait plus grande.*

U uzun ko'ylak kiyib yurardi, shu sababli katta ko'rinardi

*Faites du ski, vous ne vous **en** porterez que mieux.*

Chang'ida uching, siz undan yaxshi natija bermayapsiz.

*Un soir, elle ne rentra point à Yonville. Charles **en** perdit la tête.*

(G.Flaubert)

Bir kecha, u Yonvilga umuman qaytmadi. Charl **bundan** esini yo'qotdi.

Demak, *en* aksariyat hollarda *de* predlogini o'z ichiga qamrab oladi va asosiy munosabatlarni ifodalaydi. U o'zbek tiliga tarjima qilinadigan gaplarda to'liq ta'minlangan holda, o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

en qo'llanishi mumkin bo'lgan quyidagi **de** predlogini talab qiladigan fe'llarni esda tutish lozim:

se douter de	shubhalanmoq
parler de ...	gapirmoq
profiter de ...	foydalanmoq
s'occuper de ...	bilan shug'ullanmoq
se passer de ...	o'tmoq
se servir de ...	foydalanmoq, foydalanib turmoq
se souvenir de ...	eslamoq
avoir besoin de ...	muhtoj bo'lmoq

avoir peur de ...	qo‘rqmoq
avoir envie de ...	..ga muhtoj bo‘lmoq
être content de ...	xursand bo‘lmoq
être fier de ...	faxrlanmoq
être heureux de ...	shodlanmoq, xursand bo‘lmoq
être satisfait de ...	qanoatlanmoq
être sûr de ...	ishonmoq, inonmoq

1.2. en ravishi **de** predlogi bilan to‘ldiruvchi o‘rin holi o‘rnida qo‘llaniladi va ravish bo‘lib kelganda *u yerdan* deb tarjima qilinadi :

Venez-vous *de la bibliothèque* ? J’**en** viens [**en** – de la bibliothèque].

Kutubxonadan kelyapsizmi? Men, u yerdan kelyapman [u yerdan - kutubxonadan].

J’ai été à Tachkent et j’**en** suis revenus hier [**en** – de Tachkent].

Men Toshkentda edim va u yerdan kecha qaytdim [u yerdan - Tashkentdan].

Mes amis sont à Tachkent. Ils **en** reviennent demain. [**en** – de Tachkent].

Do‘stlarim Toshkentda. Ular u yerdan ertaga qaytadilar. [u yerdan - Tashkentdan].

Il ouvrit son bureau et **en** tira des papiers [**en** – de son bureau].

U ish stolini ochdi va u yerdan hujjatlarini chiqardi [u yerdan – ish stolidan].

Reviens-tu de l’institut? Oui, j’**en** reviens. Non, je n’**en** reviens pas.

1.3. en predlog vazifasida ot bilan birga kelib, ko‘pincha kelishik qo‘shimchalari o‘rnida qo‘llanadi va quyidagilarni ifodalaydi:

a). *O‘rinni:*

En France, il y a beaucoup de grandes villes.

Fransiyada katta shaharlar ko‘p.

b). *Vaqtini:*

En hiver, il fait froid –Qishda sovuq.

c) *Harakat va uning bajarilish usulini:*

Dites **en** français – Fransuz tilida ayting.

En quelle année êtes-vous nés ? – Qaysi yilda tug‘ilgansiz ?

d) *Mamlakatlar va qit‘alar nomlari oldida:*

La France se trouve **en** Europe – Fransiya Evropada joylashgan.

En Ouzbékistan l’été est très chaud – O‘zbekistonda yoz juda issiq.

e). *Predmet yasalgan materialni bildiradi:*

Une montre en or – tilla soat

f). *Turli iboralarni yasashda qo‘llanadi:*

en effet	– haqiqatdan
en fait	– asosli, haqiqiy
en outre	– undan tashqari
en particulier	– shu jumladan
en vain	– bekorga
en générale	– umuman olganda
en commun	– birgalashib
en dépit de	– xilof ravishda
en plus	– buning ustiga
en avance	– olg‘a
en colère	– g‘azabda

II – BOB. « Y » O'RIN RAVISHI (*Adverbe de lieu*)

2.1. 1⁰. « y » olmosh bo'lib, « à » predlogi bilan kelgan faqat predmetni ifodalovchi ot o'rnida qo'llanadi:

Pensez-vous *à votre profession* ? Oui, j'y pense [y – à ma profession].

Kasbingiz to'g'risida o'ylayapsizmi? Ha men *u haqda* o'ylayapman [**u haqda** –kasbim haqida]

Pensez-vous *à vos examens*? Nous y pensons [y – à nos examens].

Siz *imtihonlaringiz haqida* o'ylayapsizmi? Biz, *u haqda* o'ylayapmiz [**u haqda** –imtihonlarimiz haqida]

Vous intéressez-vous *à la littérature* ? Je m'y intéresse [y – à la littérature].

Siz adabiyotga qiziqasizmi? Men, **unga** qiziqaman [**unga** – adabiyotga]

Avez-vous répondu *à sa lettre* ? Oui, j'y ai répondu [y- à sa lettre].

Siz *uning xatiga* javob berdingizmi? Ha, men *unga* javob berdim [**unga** – xatga]

Etes-vous habitué *au climat de Tachkent* ? Non, je n'y suis pas habitué [y- au climat de Tachkent].

Siz *Toshkent iqlimiga* ko'nikdingizmi? Yo'q, men *unga* ko'nikmadim [**unga** –Toshkent iqlimiga]

Votre ami s'intéresse-t-il **au** *football* ? Il s'y intéresse beaucoup [y – au football].

Sizning do'stingiz *futbolga* qiziqadimi? Ha, u unga juda qiziqadi [**unga** – futbolga].

« y » olmoshi – shaxsni ifodalovchi ot o'rnida qo'llanilmaydi, uning o'rniga esa mustaqil kishilik olmoshlari ishlatiladi:

Penses-tu *à tes amis*? Oui, je pense *à eux*.

Sen do'stlaring haqida o'ylayapsanmi ? Ha, men ular haqida o'ylayapman.

A-t-il dédié cet article *à son camarade*? Oui, il a dédié l'article *à lui*.

Bu maqolani u o'rtog'iga bag'ishladimi? Ha, u maqolani unga bag'ishladi.

2⁰. « **y** » – **à** predlogi bilan kelgan butun gap o‘rnida neytral ko‘rsatish olmoshi vazifasida ishlatilishi mumkin. Bu holda, **y** olmoshi **à cela** [bu haqda] so‘ziga mos keladi.

Il est nécessaire de répéter tout avant l’examen

Imtihon oldidan hammasini takrorlash kerak.

Jy ai déjà pensé (*J’ai pensé à cela*) – Men u to‘g‘risida o‘ylagan edim.

Ce que vous dites est très grave, jy penserai [**y** – à ce que vous dites].

Sizni gapirayotganingiz, juda jiddiy, men *bu haqda* o‘ylab ko‘raman.

Vous voulez que je prenne part à l’organisation de cette soirée ? Jy consens volontiers [**y** – à ce que je prenne part].

Bu kechani tashkil qilinishiga qatnashishimni xohlaysizmi? Men, *bunga* bajonidil rozi bo‘laman.

Binobarin, « **y** » olmoshi doim **à** predlogini «qamrab» olarkan, to‘g‘ri qo‘llash uchun uning boshqaruvini bilish kerak. Ammo, « **u** » jo‘nalish kelishigini bermaydi.

Shu bois, **à** predlogini talab qiladigan quyidagi fe’llarni esda tutish kerak:

consacrer à qch...	biror narsaga bag‘ishlamoq
consentir à qch ...	ko‘nmoq, rozi bo‘lmoq
penser à ...	haqida o‘ylamoq
réfléchir à ...	haqida o‘ylamoq
répondre à ...	javob bermoq (qaytarmoq)
songer à ...	o‘ylamoq, o‘yga botmoq
s’intéresser à ...	qiziqmoq, havas qilmoq
s’habiiler à ...	odatlanmoq
prendre part à ...	qatnashmoq, ishtirok etmoq
se préparer à ...	tayyorlanmoq, hozirlik ko‘rmoq

« **y** » **olmoshi** – kishilik olmoshlari kabi fe’lning barcha formalarida bevosita fe’l oldida qo‘llanadi. Agar fe’l buyruq maylining bo‘lishli formasida qo‘llangan bo‘lsa, **y** olmoshi fe’ldan keyin qo‘yiladi :

Les examens approchent. **Y** penses-tu?

Imtihonlar yaqinlashayapti. Ular haqida o‘ylayapsanmi?

Non, je ny pense pas encore.

Yo‘q, men hali u haqda o‘ylamayapman.

Les vacances approchent. Ny pensons pas. Pensons aux examens.

Ta‘til yaqinlashayapti. U haqda o‘ylamaylik. Imtihonlar to‘g‘risida o‘ylaylik.

Les examens approchent. Pensons-**y**!

Imtihonlar yaqinlashayapti. Ular to‘g‘risida o‘ylaylik.

«**y**» olmoshi buyruq maylida turgan I-guruh fe‘llaridan keyin kelsa, II-shaxs birlikda bu fe‘llar ‘s’ harfi bilan yoziladi:

Penses-**y** ! Songes-**y**! – *Bu haqda o‘yla! Bu haqda o‘ylab ko‘r!*

Agar fe‘l buyruq maylining bo‘lishli formasida kelib, undan keyin ikkita olmosh qo‘llansa, «**y**» olmoshi oxirgi o‘ringa qo‘yiladi:

Réponds-nous-**y**!, Aidez-les-**y**!, Habituez-vous-**y**!

Bizga bu haqda javob ber! U yerda ularga yordam bering! Bunga ko‘niking!

Fe‘l buyruq maylining bo‘lishli formasi	Fe‘l buyruq maylining bo‘lishsiz formasi
Répondez- y !	Ny réponds pas!
Penses- y !	Ny répondez pas!
Pensez- y !	Ny penses pas!
Prends part- y !	Ny pensez pas!
Habituez-vous- y !	Ny prends pas part!
Intéressez-vous- y !	Ne vous y habituez pas!
Réponds- y !	Ne vous y intéressez pas!

«**y**» olmoshi gapda doim vositali to‘ldiruvchi bo‘lib keladi:

T’intéresses-tu à la poésie?

Poeziyaga qiziqasanmi ?

Oui’ je my intéresse.

Ha men, **unga** qiziqaman

2.2. « Y » ravish. « y » to‘ldiruvchi o‘rin holi vazifasida kelgan **dans, sur, sous** (..da, ustida, ostida) predloglari, ayniqsa o‘rin, joy va yo‘nalishni belgilovchi **à** predlogi o‘rnida ravish bo‘lib qo‘llaniladi :

Je vais *au cinéma*. Y vas-tu ? [**y** – au cinéma].

Men *kinoga* boryapman. Sen *u yerga* boryapsanmi ?

Karim est *à la bibliothèque*. Anvar **y** est aussi.

Karim kutubxonada. Anvar ham *u yerda*.

Elle ouvrit *l’armoire* et **y** mit le linge.

U *shkafni* ochdi va **u yerga** choyshabni qo‘ydi [**u yerga** – shkafga].

Est-elle *à l’institut*? Non, elle ny est pas.

U *institutdami* ? Yo‘q, u *u yerda* emas.

Allez-vous *à l’université* ? Jy vais [**y** – à l’université].

Universitetga boryapsizmi? Men, **u yerga** boryapman [**u yerga**– universitetga].

Avez-vous jamais été *au Caucase* ? Non, je ny ai jamais été.

Siz qachondir *Kavkazda* bo‘lganmisiz? Yo‘q, **u yerda** hech qachon bo‘lmaganman. [**u yerda** – Kavkazda].

Vos livres sont-ils *dans la serviette* ? Ils **y** sont [**y** – dans la serviette].

Sizning kitoblaringiz *portfeldami*? Ular **u yerda** [**u yerda** – portfelda].

Sont-ils *sur la table* ? Non, ils ny sont pas [**y** – sur la table].

Ular *stol ustidami* ? Yo‘q, **u yerda** emas [**u yerda** – stol ustida].

III. «EN» va «Y» O'RIN RAVISHLARINING SODDA VA QO'SHMA GAPLARDA QO'LLANILISHINI O'ZIGA XOS JIHATLARI.

En va **y** kishilik olmoshlari kabi qo'shma, urg'uli olmoshlardir. Ular fe'l oldidan, agar fe'l murakkab zamonda bo'lsa yordamchi fe' oldida keladi; Agarda, fe'l buyruq formaning bo'lishli shaklida bo'lsa, **en** va **y** fe'ldan keyin qo'llaniladi:

J'y vais.	Je n' en suis pas content
<i>Men u yerga boraman.</i>	<i>Men undan xursand emasman.</i>
J' en mange.	Y avez-vous pensé?
<i>Men undan yeyapman.</i>	<i>Bu haqda o'yladingizmi?</i>
J'y ai pensé ?	En est-il revenu ?
<i>Men bu haqda o'yladim.</i>	<i>U yerdan qaytdimi ?</i>
Il en est revenu.	Ny allez pas!
<i>U, u yerdan qaytdi.</i>	<i>U yerga bormang !</i>
Je ne m'y intéresse pas.	N' en parle pas
<i>Meni u yerga qiziqishim yo'q.</i>	<i>Bu haqda gapirma !</i>

ammo :

Allez-y !	Pensez -y !
<i>Qani yuring !</i>	<i>U haqda o'ylang!</i>
Mangez – en !	Parlez – en !
<i>Bundan yeylik !</i>	<i>Bu haqda gapiring !</i>

Agar, gapda qo'shma kishilik olmoshi bo'lsa, « en », « y » bu olmoshdan keyin keladi :

Je les y ai vus.	<i>Men ularni u yerda ko'rdim.</i>
Il m'en donne.	<i>U menga undan berdi.</i>
Je lui en ai parlé.	<i>Men unga bu haqda gapirdim.</i>

« **en** » va « **y** » kishilik olmoshining 1⁰ yoki 2⁰ shaxs birlikdagi buyruq shaklini o'rnida urg'uli bo'lib keladi:

ammo : Donnez-moi du pain ! Menga non bering !

Dofnez-m' **en** en petit morceau. Menga undan bir bo'lak bering
Souviens-t' **en**. U yerni esla.

Menez-my. Meni u yerga olib boring

En, y ning kiшилик олмошлари каторида ўрин тутиши:

1. Les différentes formes des pronoms personnels.

	<u>COD</u> complément direct	<u>COI</u> complément indirect	<u>Toniques</u> après préposition	<u>Réfléchis</u> pronominaux
Бирликда (Singulier)	me, m'	me, m'	moi	me, m'
	te, t'	te, t'	toi	te, t'
	le, la, l' (en*)	lui (y, en*)	lui, elle	se, s'
(Кўпликда) Pluriel	Nous	Nous	nous	nous
	Vous	Vous	vous	vous
	les (en*)	leur (y, en*)	eux, elles	se, s'

Олмошларни гапдаги тартиби				
Me	le	lui	y	en
Te	la	leur		
Se	les			
Nous				
Vous				

Umuman « y » kam hollarda ishlatiladi va ko'p uchramaydi. Agar « **en** » va « y » bir paytda aynan bitta gapda kelsa, « y » – « **en** » oldidan qo'llaniladi:

J'ai cherché un crayon dans ma serviette, mais je ny **en** ai pas trouvé.

*Men portfelimdan qalam qidirdim, lekin **uni u yerdan** topmadim.*

Birgalikda « y » va « **en** »ning bunday kelishi, deyarli **il y a** iborasida uchraydi:

Combien d'élèves y a-t-il dans votre groupe ? **Il y en a** quinze.

Sizning guruhingizda nechta o'quvchi bor? O'n beshta bor.

Eslatma. « y » va « **en** » bir qator fe'llar va *le, la, les* kishilik olmoshlari bilan kelgan ba'zi iboralarda umuman bironta otni ifodalamaydi; Ular fe'l yoki iboraning ma'lum qismini tashkil etib, fe'lning ma'nosini o'zgartiradi; bunday hollarga misol:

l'emporter sur qn – kimgadir ishonch saqlamoq;

l'échapper belle – osongina qutulmoq

(se) la couler douce – qiynalmay yoqimli hayot kechirmoq;
en vouloir à qn – kimdandir xafa bo‘lmoq (jahli chiqmoq);
s’en prendre à qn – kimdandir o‘pkalanmoq (gina qilmoq); va boshqalar.
l’emporter (uni olib ketmoq), en vouloir à (... istagida) kabi iboralar adabiy
tilga taalluqli; boshqalari so‘zlashuv tili (og‘zaki)ga xos.

§ 91 **En** va **y** urg‘uli olmoshlarni qo‘llaganda, o‘zbek tiliga gaplarni tarjima qilishda chetda qoldirib bo‘lmaydi:

Avez-vous des fautes dans la dictée? J’**en** ai beaucoup, les autres **en** ont peu.

Sizning yozma ishingizda xatolar ko‘pmi? Menda ko‘p, boshqalarda esa oz.

Mon frère a vingt ans, moi, j’**en** ai dix-huit.

Akamning yoshi yigirmada, meniki o‘n sakkizda.

En 1⁰. Qadimgi tilda «**en**» ancha faol qo‘llanilgan; u ma’lum bir jihatdan ishlatilishida **à**, **dans** bilan almashirilgan. Bugungi kunda, «**en**» ko‘pincha so‘z iboralar yasashda va asosan artiklsiz kelgan ot o‘rnida qo‘llanadi.

Eslatma. – Ilgari, **en** odatda aniq artiklli ot oldida ishlatilgan va artikllar bilan tutashgan. Hozirda, aniq artikllar oldida qo‘llanilishi ba’zi bir so‘z iboralardan tashqari deyarli saqlanmagan:

en l’honneur de, **en** l’absence de, **en** l’aire;

..*shon–sharafda*, ..*yo‘qligida (mavjud emasligi), maydonda*

en l’air, **en** l’occurrence de et quelques autres.

havoda, kutilmaganda (tasodifan) va bir qator boshqalarida.

Ammo, zamonaviy yozuvchilar tomonidan «**en**»ni artikl oldida qaytadan qo‘llash tendensiyasi (**en** siz qisilish yuz berganligi) ilgari suriladi. Bu tuzilishni varvarlik (bir yoqlama fikr) hisoblaydigan grammatiklar muhokama qiladilar.

Lekin, **en** boshqa determinativ (*aniqlovchi*)lar oldida qo‘llanilishi mumkin (**en** ce cas – *ushbu holatda*, **en** un instant – bir lahzada, h.k.).

2⁰. So‘z iboralar **en** bilan hol, ot yoki aniqlovchiga to‘ldiruvchi bo‘lib kelishi mumkin. Ba’zida **en** bir nechta fe’l bilan faqat vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib keladi.

Semantik nuqtai nazardan **en** o‘rin, payt, ravish, holni ifodalashi mumkin.

3⁰. **En** hol yoki ot o‘rnida to‘ldiruvchi vazifasida kelib, quyidagilarni ifodalaydi:

a) aynan jenskiy roddagi mamlakatlar nomlari oldida qo‘llanilib, aniq boradigan joyni ko‘rsatadi: Fransiyada, Afrikada, Xitoyda yashamoq, yoki ..ga bormoq, Lekin aytiladi: Alp tog‘larida, Pireney tog‘larida va h.k.; Fransiyada Luiz XIV davrida, Hozirgi Amerikada;

b) Ravish, vosita yoki holni ko‘rsatishga o‘zgaradigan aniq ma’no hali to‘liq bo‘lmagan joyni; aniq ma’noda **dans** qo‘llanadi: mashinada, 1⁰ –toifa vagonda sayyohat qilmoq, keyinchalik sayyohatini [Izoh: o‘zbek tilida poyezdda yurmoq, poyezdda] belgilab, xonada ishlamoq [uyda];

nafaqada bo‘lmoq, qamoqxonda bo‘lmoq, bu nafaqaxo‘r, mahbus bo‘lishini bildiradi (hol). Sinfxonada bo‘lmoq, bu darslari borligini bildiradi.

Lekin aytiladi: vagonga ko‘tarilmoq, samolyotda uchrashmoq, xonada bo‘lmoq, ishlamoq, sinfxonada bo‘lmoq, bu mahbus yoki o‘quvchi bo‘lmasdan aytilgan joyda bo‘lmoq.

c) Payt munosabatlarini ifodalashda: aynan fasl nomlari oldida qo‘llanadi: *yozda, kuzda, qishda (bahor oyida emas: **au**); oy nomlari oldida: yanvarda, mayda, oktabrda (lekin yanvar oyida emas: **au**); yillarni ko‘rsatishda: 1958 yilda (lekin XX asrda emas), paytni farqlash uchun cheklashda (ga, uchun):*

Je lirai ce livre **en deux jours**.

Men bu kitobni ikki kunda o‘qiyman.

Il a fini ses études **en trois ans**.

U o‘qishini uch yilda tamomladi.

En moins d’une minute, le bonhomme, toujours impassibles, fut collé contre le mur et fusillé. (Maupassant).

Bir daqiqayam o‘tmasdan doim ehtirossiz, ko‘ngilchanlar devor qarshisida tiralib, otib tashlandi.

Yasalgan iboralarni belgilang: **en un instan** [bir lahzada (zumda)], **en un clin d'oeil** [ko'z ochib yumguncha], **en un tour de main (ou en un tournemain)** [qo'lni bir siltashda (yoki bir qo'l siltashda)];

d) Aynan hayot yo'sini yoki turmush tarzini ifodalashda:

en français (fransuz tilida), **en allemand** (nemis tilida); **en vers** (she'rda), **en prose** [proza (nasr)da], **en quelque mois** (bir necha oyda);

Quyidagi hollarda kelganda: *fuqarolikda* (**en** civi), *kiyimda* (**en** habit), *rasmiy kiyimda* (**en** uniforme), *kiyinishda* (**en** tenue), *bazm kiyimida* (**en** toilette de bal), *uy shippagi* (**en** pantoufles), *ko'ylak yengida* (kostyumsiz) [**en** bras de chemise (sans veston)], *qora, oq, sochda* (bosh kiyimsiz) [**en** noir, **en** blanc, **en** cheveux (sans chapeau)] va h.k.. *oq kiyingan, qora ko'ylakda emas* (mais vêtu **de** blanc, **d'**une robe noire);

Predmetlarni ajratib ko'rsatishda: couper **en** petits morceaux, mettre **en** pièces, diviser **en** portions égales (*mayda bo'laklarga bo'lmoq, bo'laklab qo'yimoq, teng miqdorda ajratmoq*), plier **en** deux, **en** quatre (*ikki, to'rt bukarmoq*); *une pièce en trois actes* (*uch pardali pesa*), un romans **en** deux parties, **en** trois volumes (*ikki qismli, uch hajmli roman*), une symphonie **en** quatre mouvements (*to'rt qismli simfoniya*):

L'année était nettement divisée **en** deux : les vacances et puis le reste (*Vaillant-Couturier*).

Yil aniq ikkiga bo'lingan edi: ta'til va so'ngra qolgani.

Eksponat (ko'rgazma narsa)larni maydonga joylashtirish shaklini: s'asseoir **en** cercle, **en** rond, (*davrada, to'garakda o'tirmoq*), mettre **en** tas, **en** meules (*uyumga, g'aramga joylamoq*), disposer **en** pyramide, **en** ligne droite, en rangées (*piramida shaklida, to'g'ri chiziqda, qatorlarda joylamoq*); un nez **en** bec d'oiseau (*qush tumshug'idek burun*):

... la queue **en** panache étalée. (*La Fontaine*)

... (*navbat jig'adek (ukpar) tizilgan*).

[Les pierreries] jetaient leurs lumières en nappes, en rayons, en étoiles. (Flaubert).

[qimmatbaho toshlar] o‘z nurini dasturxonlarga, bo‘limlarga, yulduzlarga tashlardi

L’humanité suit une marche en zigzag. (Vaillant-Couturier)

Insoniyat egri–bugrisimon yurishida davom etmoqda.

Jismoniy va ma’naviy holatni: **en** paix (*tinchlikda*), **en** détresse (*musibatda*), **en** deuil (*azada*), **en** larmes (*ko‘z yoshida*), **en** colère (*g‘azabda*), **en** disgrâce (*yomon ko‘ringan*), **en** retraite (*nafaqada*), **en** congé (*ta’tilda*), **en** réparation (*ta’mirlashda*) **en** fleurs (*gullardan*), être **en** état de faire qch (mais de bonne, de mauvaise humeur) [*biror narsa qilish holatida bo‘lmoq (lekin yaxshi, noxush emas)*];

e) Tartib bo‘yicha kishi nomi bilan **en** ‘kabi’, ‘sifati’, ‘jihati’ni ifodalaydi va hayot tarzini tavsiflash uchun xizmat qiladi : advokat sifatida, do‘stona gapirmoq, yaxshi biladigan kabi ayblamoq, Pero kabi kiyinmoq;

C’ est la maman de Suzanne qui a arrangé tout cela en Parisienne entichée de bibelots. (France).

Bu Suzannaning onasi, hammasini parijlik ayol kabi mayda–chuyda narsalarga havas bilan hammasini tartibga keltirgan.

Lavez-moi l’homme de l’habitude, qu’il a de penser **en** propriétaire et vous avez déjà fait la moitié du chemin (Bloch).

Meni xo‘jayindek o‘ylashga odatlangan odamni xalos eting va siz allaqachon yo‘lni yarmini bajardingiz.

... il se mit à parler, les yeux au loin, sans hâte, mais sans précipitation, **en** homme qui a l’habitude de la parole. (Martin du Gard)

... ko‘zlari uzoqda, lekin gapi bor kishi kabi shoshmasdan, u sekin gapirishga tushdi.

... la bourgeoise s’évertuait à l’habiller ses enfants **en** signes savants.(Vaillant-Couturier).

...meshchan ayol bolalarini ustamon kiyintirishga harakat qilardi.

... il s'était vu accueilli par son dieu **en** ami, presque **en** égale. (Maurois).

... u o'zini xudo tomonidan do'stona qabul qilingan kabi, deyarli shunday hisoblardi.

f) predmetning nimadan yasalganini: une table **en** bois (**yog'och** stol), une montre **en** or (**tilla** soat):

... une énorme casquette **en** peau de lapin ... (Daudet).

... katta bosh kiyim quyon terisidan (**furajka**)

... un fauteuil portugais **en** cuir ... (France)

... **portugal** kreslosi charmdan...

De ushbu holatda ko'p ishlatiladi, lekin ravish nomi aniq bo'lsa, **de en** ni ergashtiradi :

Une table **de** bois, mais une table en bois de noyer.

Yog'och stol, lekin yong'oq daraxtidan yasalgan.

4⁰. a) - f) bandlarda ko'rsatilganlarga **en** bilan yasalgan quyidagi bir qator turli ravishli, taxminiy yoki og'zaki iboralarni qo'shish mumkin:

en avant (**oldinga**), **en** arrière (**orqaga**), **en** bas (**pastga**), **en** haut (**yuqoriga**), **en** effet (**haqiqatda**), **en** général (**umuman, asosan**), **en** particulier (**xususan**), **en** vain (**aksincha**), **en** vue (**rangidan**), **en** apparence (**ko'rinishidan**), **en** évidence (**shak-shubhasiz**), **en** commun (**birgalikda**), **en** tout cas (**har qanday holatda**), **en** toute conscience (**har qanday tan olishda**), **en** toute franchise (**to'liq rost gapirish**), **en** plein hiver (**ayni qish payti**) va boshqa to'liq 'o'rtasida' (**orasida, avjida, ..ga to'g'ri**) so'zlari bilan ifodalovchi iboralar: **en** plein soleil (**jazirama oftob**), **en** plein rue (**gavjum ko'cha**) va h.k.;

Taxminiy iboralarda (Les locutions prépositives):

en faveur de (**foydasiga**), **en** guise de (**sifatida**), **en** qualité de (**sifatida**), **en** prévision de (**oldidan ko'rib**), **en** vue de (**uchun**), **en** raison de (**..ga muvofiq**), **en** cas de (**agar, mabodo, bordiyu**), **en** proie à [**qo'li (ta'siri) ostida**] ;

Fe'l iboralarda (Les locutions verbales) :

pendre **en** affection (*bog'liq holda osilib turmoq*), prendre **en** grippe (*yoqtirmaslik*),

être **en** peine (*qiyinchilikda bo'lmoq*),

battre **en** retraite (*chekinmoq*),

mettre **en** joue (*nishonga olmoq*),

tourner **en** dérision (*masxara qilmoq, kulguli holatga qo'yimoq*) h.k

5⁰. **En** bir nechta fe'llarga vositasiz to'ldiruvchi bo'lib keladi:

avoir confiances **en** ses amis (*do'stlariga ishonchli bo'lmoq*), espérer **en** l'avenir (*kelajakka umid qilmoq*), se connaître **en** qch (*tekshirib ko'rmoq*), changer, transformer **en** qch. (*biror narsaga o'zgartirmoq, aylantirmoq*).

6⁰. Ko'rinib turibdiki, **en** ning ishlatilishi tartibi aksariyat hollarda ravish, sifat yoki gapda va iboralarda artiklsiz qo'llanilgan ot oldida ikkinchi darajaga tushib qolishi bilan xarakterlanadi.

Ko'p mustaqil so'zlarda **en** o'rniga **dans** almashgan va ot oldida artikl yoki aniqlovchi sifat qo'llaniladi.

Qiyoslaymiz:

marcher **en** silence – marcher **dans** un silence

tinch yurmoq – jimlikda yurmoq

Être **en** colère complet – **dans** la colère où il était...

Jahlga to'la bo'lmoq – ... jahl ustida.

Il était **en** pleine confusion – **Dans** sa confusion, il ne pouvait dire un mot

U to'liq sarosimada edi – Sarosimada so'ziga javob bera olmasdi.

La lettre est écrite en français – ... dans un français, très pur.

Xat fransuz tilida yozilgan – fransuzchada juda tiniq.

Dans ces bois il y a des fraises **en** abondance

Bu qulupnay ko'chatlarida hosil mo'l.

Nous voulons que tous les citoyens vivent **dans** l'abondance.

Biz hamma fuqarolar to'g'likda yashashini xohlaymiz.

J'ai vu maman **en** robe blanche. (France)

Men onamni oq ko‘ylakda ko‘rdim.

dans *sa longue blouse noire*, elle était très grande. (Zola)

u qora xalatida juda katta ko‘rinar edi.

7⁰. Shaxsga tegishli gapda doim **en** qo‘llanilishini e‘tiborga olsak, **dans** emas, **qui** nisbiy olmoshi ishlatiladi:

Il ne comprenait pas ce qu’il se passait **en** *lui* [mais dans son âme].

U unda nima bo‘layotganligini tushunmasdi [lekin o‘z qalbida].

Je blâme **en elle** son peu de modestie [mais dans sa conduite].

Men uni kamsuqumligiga tanbeh beraman [lekin uning harakatiga]

Qator grammatikalarda ravishning qiyosiy darajalariga ko‘ra o‘zgarishi ko‘rsatiladi. Ammo, zamonaviy fransuz tilida ravishlarning qiyosiy darajasi morfologiyada emas, sintaktaksisga oid.

Ravishlarda aniq morfologik xususiyatlarni yo‘qligi sabab, predloglar, bog‘lovchilar, undov, gaplar, yuklama, so‘z iboralar, hamda sifat kabi o‘zgarmas so‘z turkumlaridan ularni chegaralash qiyin bo‘ladi.

Adabiy tilshunoslikda doim ravishlarni doirasini aniqlash imkonini beradigan yagona mezonning yo‘qligi kuzatiladi.

Aytishadiki, ravishlar bu « qiyin aniqlanadigan so‘z turkumlari » («catégorie des inclassables»), paydo bo‘lganidan « ko‘milib ketgan » («fourré-tout»), bu so‘z turkumlariga kirgan, boshqa so‘z turkumlariga kirmaydi.

Vilme, ravish turlarini aniqlashning qiyinligi haqida gapirib, ularni « ma’no bermaydigan sinf » (une classe introuvable) [169 (1)] deb atagan.

Boshqa mualliflar ravishga inkor aniqlovchi berish mumkin, bu predmetni yoki uning xususiyatlarini ifodalamaydigan mustaqil so‘z (na ot, fe‘l yoki sifat) deb hisoblaydilar.

Ravishlarni so‘z turkumi sifatida chegarasini aniqlashda ikkita fikrni ko‘rsatish mumkin:

